

**QORAQALPOG'ISTON BAXSHICHILIK SAN'ATIDA USTOZ-SHOGIRD  
AN'ANASINING AHAMIYATI****Qarlibaeva Azada**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Doston ijrochiligi kafedrası 4–bosqich talabasi

**Karlibaeva Aziza Kenesbay qizi**

NDPI Musiqa tálim 1- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20474283>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyoti va musiqiy madaniyatining fundamental asosi hisoblangan baxshichilik san'atida ustoz-shogird an'anasining tarixiy, ijtimoiy va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada baxshichilik maktablarining shakllanish qonuniyatlari, shogird tanlash mezonlari, ta'lim-tarbiya bosqichlari hamda professional maqom belgisi hisoblangan "pát (oq fotiha)" berish an'anasining funksional xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalq dostonlari va an'anaviy cholg'u kuylarining (namalarning) variantlilik hamda invariantlilik xususiyatlari ustoz-shogird munosabatlari kontekstida tadqiq etilib, bugungi globallashuv sharoitida ushbu nomoddiy madaniy merosni saqlash muammolari bayon qilingan.

**Kalt so'zlar:** Qoraqalpoq folklori, baxshichilik san'ati, ustoz-shogird, dostonchilik, dutor, baxshi maktabi, pát (fotiha), ma'naviy meros, ijrochilik mahorati, og'zaki professionalizm.

**Abstract.** This scientific article analyzes the historical, social, and pedagogical significance of the mentor-apprentice tradition in the art of bakhshi, which is considered the fundamental foundation of Karakalpak folklore and musical culture. The article highlights the patterns of formation in bakhshi schools, the criteria for selecting apprentices, the stages of education and upbringing, and the functional characteristics of the tradition of giving "pát" (white blessing), which is considered a sign of professional status. Also, the features of variation and invariance of folk epics and traditional instrumental melodies (songs) are studied in the context of teacher-student relations, and the problems of preserving this intangible cultural heritage in the context of today's globalization are described.

**Keywords:** Karakalpak folklore, bakhshi art, mentor-apprentice, dastan, dutar, bakhshi school, pat, spiritual heritage, performing skills, oral professionalism.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируется историческое, социальное и педагогическое значение традиции "наставник-ученик" в искусстве бахши, которое считается фундаментальной основой каракалпакского устного народного творчества и музыкальной культуры. В статье освещаются закономерности формирования школ бахши, критерии отбора учеников, этапы обучения и воспитания, а также функциональные особенности традиции дачи "пат (белого благословения)," считающейся признаком профессионального статуса. Также исследованы особенности вариативности и инвариантности народных дастанов и традиционных инструментальных мелодий (наме) в контексте отношений учитель-ученик, изложены проблемы сохранения этого нематериального культурного наследия в условиях современной глобализации.

**Ключевые слова:** Каракалпакский фольклор, искусство бахши, наставник-ученик, дастанное искусство, дутар, школа бахши, пат (фотиха), духовное наследие, исполнительское мастерство, устный профессионализм.

Har qanday xalqning o'ziga xosligini, uning tarixiy tafakkuri va estetik qarashlarini gumanitar fanlar tizimida aks ettiruvchi eng muhim manba bu – uning milliy musiqiy va folklor merosidir. Qoraqalpoq xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy dunyosi, ijtimoiy hayoti va falsafiy-estetik ideallari bevosita baxshichilik san'ati bilan bog'liqdir. Qoraqalpoq baxshichilik san'ati shunchaki xalq ko'ngilochar vositasi emas, balki xalqning o'tmishi, sheriylari, falsafasi va milliy kodini o'zida saqlagan murakkab sinkretik san'at turidir.

Ushbu qadimiy va boy san'atning asrlar davolidan omon o'tib, o'zining genezisi va fundamental tuzilishini yo'qotmasdan bugungi kunga yetib kelishi bevosita ustoz-shogird (pedagogik-ijodiy) tizimi bilan bog'liq. Og'zaki an'anadagi professionalizm xususiyatiga ega bo'lgan baxshichilik san'atida yozma darsliklar yoki notalar tizimi bo'lmagan sharoitda, ustoz-shogird instituti yagona axborot uzatuvchi va madaniy davomiylikni ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajargan. Shuning cheksiz ahamiyati sababli, ushbu an'ananing strukturaviy va funksional jihatlari tadqiq etish zamonaviy folklorshunoslik va musiqashunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq baxshichilik maktablarining shakllanish tarixi va asoslari.

Qoraqalpoq baxshichilik san'ati uzoq tarixiy rivojlanish davrida bir qancha mustaqil va o'ziga xos ijrochilik uslubiga ega bo'lgan maktablarni shakllantirdi. Bu maktablar geografik joylashuvi, repertuar ko'lami, dutor chalish texnikasi va ovoz berish (ijro) uslublari bilan bir-birdan farqlanadi. Xususan, fanda Muwsa baxshi, Shernazar baxshi, Esemurat baxshi, jirovchilik yo'nalishida esa Soppasli Sipar jirov, Jiye jirov maktablarining o'rni alohida e'tirof etiladi.

Baxshichilik maktablarining yashashi va ijtimoiy institut sifatida faoliyat ko'rsatishi bevosita ustoz shaxsiga va uning atrofida shakllangan shogirdlar guruhiga bog'liq bo'lgan. Ustoz – muayyan ijro uslubining eng yetuk vakili, doston matnlari va kuylarining jonli ensiklopediyasi, shu bilan birga yuksak ma'naviy nufuzga ega bo'lgan jamoat arbobidir. Baxshichilik maktablarida uzatiladigan bilimlar majmuasi faqatgina estetik xarakterga ega bo'lmay, balki quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajargan:

Tarixiy-etnik xotirani saqlash: Dostonlar orqali xalqning kelib chiqishi, qahramonliklari va tarixiy sinovlari shogirdlar ongiga singdirilgan.

Til tozaligi va ritorika: Qoraqalpoq tilining boy imkoniyatlari, frazeologizmlar va klassik she'riyat o'lchovlari (barmoq vazni) shogirdlarga mukammal o'rgatilgan.

Musiqiy-estetik ta'lim: Dutor cholg'usining murakkab akkordlari, qochirimlari va xalq kuylarining (namalarining) invariant asoslari saqlab qolingan.

Ustoz-shogird munosabatlarida ta'lim-tarbiya bosqichlari. Baxshichilik maktablarida ta'lim jarayoni bugungi zamonaviy konservatoriya yoki akademiya ta'limidan qolishmaydigan darajada tizimli, ketma-ketlikka asoslangan va o'ta qat'iy bo'lgan. Shogirdning professional baxshi darajasiga ko'tarilishi bir necha o'n yillik mashaqqatli mehnatni talab etgan va u bir nechta muhim bosqichlardan iborat bo'lgan:

A) Iste'dodni aniqlash va "sinov" bosqichi

Har qanday dutor chalishga qiziquvchi yosh yigit ham baxshi bo'la olmagan. Ustoz o'ziga shogird tanlashda o'ta talabchan bo'lgan. Dastlabki bosqichda yosh nomzodning quyidagi tabiiy qobiliyatlari tekshirilgan:

Musiqiy eshitish qobiliyati (shre): Kuyni bir eshitishda aniq qaytara olish qobiliyati.

Xotira (Yod): Minglab satrlardan iborat doston matnlarini, ularning syujet chiziqlarini xotirada tez va mustahkam saqlay olish salohiyati.

Ovoz tabiati: Baxshichilikka xos bo'lgan o'ziga xos ichki (ko'krak yoki tomoq) ovozinig mavjudligi va uning chidamliligi.

Ustoz ko'pincha bo'lajak shogirdni uy ishlarida, safarlarda o'ziga hamroh qilib yurib, uning fe'l-atvori, sabri, ustozga bo'lgan hurmati va odobini ham sinovdan o'tkazgan.

B) "Dutor qo'lga berish" va namalarni o'zlashtirish

Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan yoshga ustoz tomonidan rasmiy ravishda uning darajasiga mos keladigan dutor berilgan yoki uni yasatishga ruxsat etilgan.

Bu bosqichda darslar "ustoz-shogird" shaklida, yuzma-yuz, og'zaki ravishda olib borilgan. Shogird ustozning barmoq harakatlarini (parda bosish, noxun urish texnikasini) vizual kuzatish va quloq orqali eshitish orqali nusxa ko'chirgan. Avval oddiy xalq kuylari, so'ngra murakkab baxshi namalari o'rgatilgan. Shogird har bir kuyni mukammal, xatosiz chalmaguncha keyingi bosqichga o'tkazilmagan.

V) Dostonchilik mahorati

Qoraqalpoq baxshichilik san'atining eng yuqori cho'qqisi – bu doston ijrochiligidir. Shogird ustozidan "G'arib-Ashiq" (G'arib-Oshiq), "Sayatxan-Hamra" (Sayatxon-Hamro), "Ashq-Najep", "Yusuf-Axmet" (Yusuf-Ahmad) kabi klassik ishqi-y-qahramonlik dostonlarini o'rgana boshlagan. Bu bosqichda shogird nafaqat matn va kuyni yodlashi, balki har bir qahramonning xarakterini ovoz bo'yoqlari orqali yetkazib bera olish (aktyorlik mahorati) sirlarini ham egallagan. Ustoz shogirdga doston ijrosi davomida xalqning kayfiyatiga qarab voqealarni uzaytirish yoki qisqartirish, ya'ni improvizatsiya (to'qima ijodkorlik) sirlarini o'rgatgan.

4. "Patiya beriw" – professional maqom va ijtimoiy mas'uliyat belgisi

Baxshichilik ta'lim tizimining yakuniy va eng muqaddas nuqtasi – bu "patiya" (oq fotiha) berish marosimidir. Shogird ustozining barcha repertuarini to'liq o'zlashtirib, ustoz nazoratidagi kichik yig'inlarda (to'y-sayillarda) o'z mahoratini namoyish etgandan so'ng, "patiya" olish huquqiga ega bo'lgan.

"Patiya" berish marosimi xalq, el-yurt oqsoqollari va boshqa baxshilar huzurida o'tkazilgan. Shogird ustozining va yig'ilganlarning qat'iy imtihonidan o'tgan. Ustoz shogirdining kamolotiga to'liq ishonch hosil qilgach, unga o'z duosini bergan va ramziy ma'noda o'z dutorini yoki kiyimini hadya etgan. Ustoz patini olmagan, o'zboshimchalik bilan o'zini "baxshi" deb e'lon qilgan shaxslar xalq yig'inlariga, katta to'ylarga ruxsat etilmagan va ularning san'ati kamsitilgan.

Bu tizim baxshichilik san'atining professional darajasini tushib ketishdan asragan o'ziga xos sifat nazorati bo'lib xizmat qilgan.

Ustoz-shogird an'anasining ijtimoiy-madaniy va pedagogik ahamiyati:

Bugungi pedagogika fani nuqtai nazaridan qaraganda, baxshichilikdagi ustoz-shogird an'anasi individual ta'limning eng mukammal va samarali modelidir. Unda quyidagi muhim pedagogik prinsiplar mujassamlashgan:

Ustoz har bir shogirdning shaxsiy xususiyatlari, ovoz diapazoni va psixologik holatidan kelib chiqib dars o'tgan.

Sadoqat va etika (Ahlokiy tarbiya): Shogird faqat san'atni emas, balki hayotiy donishmandlikni, kattalarga hurmatni, el xizmatida bo'lish mas'uliyatini ustozning shaxsiy namunasida o'rgangan. Ustoz shogirdning nafaqat dars paytidagi, balki kundalik hayotdagi xulq-atvorini ham nazorat qilib, uni jamiyat uchun munosib shaxs qilib tarbiyorlagan.

Globalashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi asrda, og'zaki an'adagi ko'plab qadriyatlar yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Shuning uchun ham ustoz-shogird

an'anasini saqlab qolish va uni zamonaviy ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, madaniyat institutlari hamda konservatoriya tizimiga tatbiq etish strategik ahamiyatga ega.

### **Xulosa**

Qoraqalpog'iston baxshichilik san'atida ustoz-shogird an'anasi – bu shunchaki mahorat o'rgatish uslubi yoki mexanik jarayon emas, balki qoraqalpoq xalqining ma'naviy dunyosini, tilini, tarixini va madaniy identifikatsiyasini asrlar oshib bezavol uzatib kelayotgan jonli ijtimoiy-madaniy institutdir.

Ushbu an'ana tufayli qoraqalpoq xalqining boy dostonchilik merosi bugungi kunda ham o'zining jozibadorligi va milliy xarakterini yo'qotmasdan yashab kelmoqda. Ushbu ilmiy tizimni chuqur tadqiq etish, qadimiy ijro sirlarini zamonaviy yosh avlodga yetkazish va davlat darajasida qo'llab-quvvatlash qoraqalpoq milliy madaniyatining xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga, shuningdek, kelajak avlodning o'z milliy ildizlariga bo'lgan hurmatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maqsetov J. Qaraqalpaq jiraw hám baqsıları. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1980. – 180 b.
2. Ayymbetov Q. Xalıq aqınları. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1974. – 210 b.
3. Allambergenov K. Qaraqalpoq folklorı tariyxı. – Nókis: "Bilim", 1993. – 245 b.
4. Tájimuratov A. Qaraqalpoq baqsı-jirawları. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1991. – 195 b.
5. Nizamatdinov J. Qaraqalpoq musıqa miyrasları hám zamanagóylik. – Tashkent: "Yangi asr avlodi", 2012. – 160 b.
6. Xorazm va Qoraqalpog'iston dostonchilik maktablari muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Urganch, 2018. – 112 b.